

*O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI*

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

“Kutubxonashunoslik” fanidan

REFERAT

*Mavzu: ARMlarning oylik tadbirlar rejasini
ishlab chiqish*

*Bajardi: 290-11. Tojixonova Sh.
Tekshirdi: Shodmonova F.T.*

Toshkent 2014

Mustaqil O'zbekistonning 2014 yil dekabr oyidagi muhim va unutilmas sanalar taqvimi

Reja:

- 1. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining 2014 yil dekabr oyidagi muhim va unutilmas sanalar taqvimi.*
- 2. Dekabr oyidagi muhim sanalar.*
- 3. Dekabr oyidagi taniqli insonlar tavallud kunlari.*

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan "Mustaqil O'zbekistonning muhim va unutilmas sanalari" taqvimi o'zbek va rus tillarida har yili tayyorlanishi an'anaviy tarzda davom etib kelmoqda.

Ushbu taqvimda asosan o'lkashunoslik mazmunidagi ma'lumotlar kiritilgan bo'lib, mamlakatimizning ijtimoiy - siyosiy, madaniy hayotiga oid unutilmas sanalar hamda davlat va jamoat arboblari, san'at va fan fidoyilarining tavallud sanalari berilgan.

Muhim sanalar xronologik tartibda oylar bo'yicha, so'ngra 2014 yilda nishonlanadigan muhim sanalar hamda mashhur shaxslar tavallud sanalari va adabiyotlar joylashtirilgan.

Ushbu taqvim keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Dekabr

1 dekabr - Butunjahon orttirilgan immunitet tansiqiligi sindromi kasalligi (OITS) ga qarshi kurash.

1 dekabr - Ayollar Xalqaro demokratik federatsiyasi tashkil topgan kun (1945).

3 dekabr - Xalqaro nogironlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish kuni (1993).

4 dekabr - O'zbekiston faxriylari ijtimoiy qo'llab-quvvatlab himoyalash "Nuroniy" jamg'armasi (1996) tashkil topgan kun.

4 dekabr - Qoraqalpog'iston Respublikasining Davlat Madhiyasi (1993) tasdiqlangan kun.

5 dekabr - Xalqaro ko'ngillilar kuni.

7 dekabr - O'zbekiston Respublikasi hamda Maldiv Respublikasi o'rtasida o'zaro diplomatik munosabatlar o'rnatilgan kun (1994).

8 dekabr - O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992) qabul qilingan kun - umumxalq bayrami.

10 dekabr - Inson haq-huquqlari kuni (1948).

10 dekabr - O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi (1992) qabul qilinganiga 17 yil to'ldi.

11 dekabr - YUNISEF-BMT Bolalar fondi (1946) tashkil topgan kun.

12 dekabr - Iste'dodli shoir, shodlik va baxt kuychisi, dramaturg, olim, davlat va jamoat arbobi Hamid Olimjon (1909-1944) tavalludining 105 yilligi.

14 dekabr - Adabiyotshunos olim, faylasuf, publitsist Vohid Zohidov (1914 - 1983) tavalludining 100 yilligi.

14 dekabr - Qoraqalpog'iston Respublikasining suverenligi (1990) e'lon qilingan kun.

14 dekabr - Qoraqalpog'iston Respublikasining Davlat Bayrog'i (1992) tasdiqlangan kun.

16 dekabr - O'zbekiston Respublikasi FIFAga (1992) a'zo bo'lgan kun.

17 dekabr - Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1874) tavalludining 205 yilligi.

18 dekabr - Xalqaro migrantlar kuni (1990).

21 dekabr - O'zbekiston Respublikasi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH 1991 y. 8 dekabrda Minskda tuzilgan) tashkilotiga a'zo bo'lgan kun (1991).

22 dekabr - Energetik xodimlar kuni.

22 dekabr - O'zbekiston Respublikasi hamda Peru Respublikasi o'rtasida o'zaro diplomatik munosabatlar o'rnatilgan kun (1999).

25 dekabr - O'zbekiston xalq yozuvchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Komil Yashin (1909-1997) tavalludining 105 yilligi.

26 dekabr - O'zbekiston Respublikasi hamda Avstraliya o'rtasida o'zaro diplomatik munosabatlar o'rnatilgan kun (1991).

29 dekabr - Respublika Davlat Mustaqilligi masalasi bo'yicha umumxalq Referendumi hamda O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti saylov bo'lib o'tgan va unda Islom Karimov Prezident etib saylangan (1991) kun.

31 dekabr - O'zbekiston Respublikasi hamda Makedoniya Respublikasi o'rtasida o'zaro diplomatik munosabatlar o'rnatilgan kun (1994).

25 dekabr Komil Yashin tavalludining 105 1909 - 1997 yilligi

O'zbekiston xalq yozuvchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rstagan san'at arbobi Komil Yashin (No'monov) Andijonda tug'ilgan. O'rta maktabni tugatgach, 1925 yilda Leningraddagi o'rmon xo'jalik institutida o'qiydi. O'qishni tugallab maktabda o'qituvchilik qiladi. 1930 yildan boshlab O'zbek musiqasi drama teatrida adabiy emakdosh bo'lib ishlaydi.

Yashinning ijodiy faoliyati 1925 yildan boshlanadi. "Quyosh", "Kurash", "Komsomol" kabi she'riy to'plamlari shoirning ilk ijodi hisoblanadi.

Komil Yashinning o'zbek teatri va dramaturgiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ulkandir. U 1974 yilda "Inqilob tongi" dramasini yozdi. Unda xalqimizning yetuk farzandi, atoqli davlat arbobi Fayzulla Xo'jayevning siymosi gaudalangan.

Uning so'nggi asarlaridan biri ikki kitobdan iborat "Yodgorlik" memuaromasidir. Davlatimiz unga adabiyot va san'at sohasidagi xizmatlari uchun O'zbekiston xalq yozuvchisi, Mehnat Qahramoni unvonlari berdi.

12 dekabr Hamid Olimjon tavalludining 105 1909 - 1944 yilligi

Iste'dodli shoir, shodlik va baxt kuychisi dramaturg, olim, davlat va jamoat arbobi Hamid Olimjon Jizzax shahrida tavallud topgan. Boshlang'ich maktabni tugatib, Samarqand pedagogika bilim yurtida o'qigan.

Hamid Olimjon talabalik yillaridayoq she'r yoza boshlagan. 1926 yildan "Zarafshon" gazetasida chiqa boshladi. Uning "Ko'klam" nomli ilk she'riy to'plami 1929 yilda bosilib chiqdi. Shundan so'ng "Olov sochlar", "O'lim yovga", "Poyga" kabi she'riy to'plamlari nashr etildi.

Hamid Olimjon o'z ijodida xalqimizning mehnat qahramonligini tasvirlagan nashr 30-yillarda adabiyotimizda siyosiy lirikaning eng yaxshi namunalarini yaratdi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi Hamid Olimjon o'zbek adabiyotining dolzarb masalalari bo'yicha qator ilmiy-tanqidiy nashrlar yaratdi.

O'zbek xalq og'zaki ijodining ajoyib durdona asari "Alpomish" dostoni birinchi marta Hamid Olimjon tomonidan nashrga tayyorlanib, so'z boshi bilan chop etildi.

Hamid Olimjon 1939 yildan to umrining oxirigacha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qildi.

Foydalanilgan manbalar:

www.natilib.uz